

UDC: 343.53(045)(575.1)

XORIJIY MAMLAKATLARDA HUKUMATNI SHAKLLANTIRISHNING NOPARLAMENTAR USULI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Hoshimxonov Ahrorxon Mo'minovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent
ORCID: 0000-0002-2705-950X
e-mail: hoshimxonov@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada hukumatni shakllantirishning usullaridan biri bo'lgan neparlamentar usul to'g'risida fikr yuritilib, huquqshunos mutaxassislarning ushbu yo'nalishdagi mulohazalarini keltirish va xorijiy mamlakatlarning ijro etuvchi hokimiyat oliy organini shakllantirishga oid konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini o'rganish asnosida uning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, hukumatni siyosiy javobgarlikka tortishga doir xorijiy mamlakatlar konstitutsiyaviy-huquqiy amaliyoti tahlil qilingan. Turli davlatlarda hukumat ijtimoiy hayot sohasiga doir turli vakolatlarni amalga oshirsa-da, barcha rivojlangan demokratik davlatlarda hukumat o'z faoliyatining asosi sifatida fuqarolarning haq-huquqlari, manfaatlari va erkinliklari himoyalanihini ta'minlashni ifoda etadi. Ana shu fuqarolar tomonidan saylangan xalq vakillari qabul qilgan qonunlar ijrosi bevosita hukumatning faoliyati va u qabul qiladigan huquqiy hujjatlar asosida ta'minlanadi. Hukumatning shakllantirish tartibi va ijro etuvchi hokimiyatning tegishliligi, avvalo, muayyan davlatning boshqaruv shakliga bog'liq. Shuningek, qonunchilikni tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat rahbari sifatidagi huquqiy maqomining muhim jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Bu parlamentar davlatlarda hukumat va uning a'zolari iste'foga chiqishining konstitutsiyaviy tartib va tamoyillarini belgilash hamda amalga oshirish to'g'risidagi xulosalar uchun asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: hukumat, neparlamentar usul, bosh vazir, hukumat javobgarligi, prezident, ishonch.

ВНЕПАРЛАМЕНТСКИЙ СПОСОБ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВИТЕЛЬСТВА В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Хошимхонов Ахрорхон Муминович,
кандидат юридических наук, доцент,
проректор по работе с молодежью
Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В данной статье рассматривается один из способов формирования правительства – внепарламентский способ, и в процессе изучения мнений специалистов-правоведов в данной сфере и изучения конституционно-правовых основ формирования исполнительной власти за рубежом выявлены его специфические черты. Также была проанализирована конституционно-правовая практика зарубежных стран по привлечению правительства к политической ответственности. Хотя в разных странах государство осуществляет различные полномочия в сфере общественной жизни, во всех развитых демократиях государство представляет защиту прав, интересов и свобод граждан как

основу своей деятельности. Исполнение законов, принятых избранными этими гражданами представителями народа, обеспечивается непосредственно на основе деятельности правительства и принятых им правовых актов. Порядок формирования правительства и принадлежность исполнительной власти зависят прежде всего от формы правления того или иного государства. Кроме того, продемонстрированы важные аспекты правового статуса Президента Республики Узбекистан как главы государства благодаря анализу нормативно-правовой базы. На этом основаны выводы об установлении и реализации конституционных процедур и принципов отставки правительства и его членов в парламентских государствах.

Ключевые слова: правительство, непарламентский метод, премьер-министр, подотчетность правительства, президент, доверие.

NON-PARLIAMENTARY WAY OF FORMING GOVERNMENT IN FOREIGN COUNTRIES: COMPARATIVE-LEGAL ANALYSIS

Hoshimkhonov Ahrorhon Muminovich,

Vice-Rector for Youth Affairs of
Tashkent State University of Law,
Candidate of Legal Sciences, Associate Professor

Abstract. This article discusses one of the ways to form a government - an extra-parliamentary method, and in the process of studying the opinions of legal experts in this area and studying the constitutional and legal foundations for the formation of executive power abroad, its specific features are revealed. The constitutional and legal practice of foreign countries was also analyzed to bring the government to political responsibility. Although in different countries the state exercises different powers in the sphere of public life, in all developed democracies the state represents the protection of the rights, interests and freedoms of citizens as the basis of its activities. The execution of laws adopted by the representatives of the people elected by these citizens is ensured directly on the basis of the activities of the government and the legal acts adopted by it. The order of formation of the government and the affiliation of the executive power depends primarily on the form of government of a particular state. In addition, important aspects of the legal status of the President of the Republic of Uzbekistan as the head of state are demonstrated through the analysis of the legal framework. This is the basis for the conclusions about the establishment and implementation of constitutional procedures and principles for the resignation of the government and its members in parliamentary states.

Keywords: government, non-parliamentary method, prime minister, government accountability, president, trust.

Kirish

Mamlakat taraqqiyoti qabul qilingan qonunlarning samarali ijrosiga bog'liq bo'lib, uni amalga oshirish ham davlatning muhim faoliyat yo'nalishlaridan biridir. Bunda ushbu qonunlarning sifatli va mazmunli ijrosi, albatta, ijro etuvchi hokimiyat, ya'ni hukumat zimmasiga tushadi. Bugungi kunda davlat boshqaruvini samarali tashkil etish yuzasidan bildirilayotgan fikr va mulohazalar ijro etuvchi hokimiyat organlari ishini to'g'ri va mazmunli tashkil etish maqsadini ko'zlaydi.

Xorijiy mamlakatlarning hukumatlari o'z tarkibiga ko'ra, ya'ni undagi mavjud lavozim turlari va hukumat a'zolari mavqeyining xilma-xilligi bilan bir-biridan ajralib tura-di. Rivojlangan davlatlar konstitutsiyalarida hukumatning maqomi, uning davlat hamda jamiyat hayotidagi o'rniga oid qoidalar muayyan darajada belgilangan. Hukumatni shakllantirish tartibidan oldin asosiy qonun hujjatlarida uning faoliyati nimaga yo'naltirilganligi haqida qisqacha to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, Niderlandiya Konstitutsiyasi-ning 45-moddasiga ko'ra, Ministrlar Kengashi hukumatning umumiy siyosat masalalariga oid qarorlarini ko'rib chiqadi va qabul qiladi [1, p. 143]. Portugaliya Konstitutsiyasining 182-moddasiga ko'ra, hukumat – bu mamlakatning umumiy siyosatiga rahbarlik qiladi va davlat ma'muriyatining oliy organidir [1, 141-b.].

Gretsiya Konstitutsiyasining 82-moddasiga asosan, hukumat konstitutsiya va qonunlarda belgilangan qoidalarga asosan, davlatning umumiy siyosatini belgilaydi va yo'naltiradi [1, 153-b.].

Ispaniya Konstitutsiyasining 97-moddasiga binoan, hukumat ichki va tashqi siyosatga rahbarlik qiladi, davlat muhofazasi, qurolli kuchlar va fuqarolik ishlarini boshqaradi. U o'zining ijro etish va tartibga solish funksiyasini konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshiradi [2, 392-b.].

Shvetsiya Konstitutsiyasining I bobi 6-bandiga muvofiq, "davlatni hukumat boshqaradi" [2, 701-b.].

Ushbu davlatlar konstitutsiyalaridagi qoidalar aksariyat holatlarda hukumatning davlat hayotida umumiy siyosatni belgilashi va amalga oshirishini mustahkamlashi bilan bir qatorda hukumatning oliy boshqaruv organi ekanligini ham ta'kidlaydi.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida uchta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi – xorijiy mamlakatlarda hukumatni shakllantirishning qanday shakl va usullari mavjud; ikkinchi – hukumatni shakllantirishning noparlamentar usulining o'ziga xosliklari nimalardan iborat; uchinchi – hukumatni iste'foga chiqarish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, hukumatni shakllantirishning noparlamentar usulining bir qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi. Demak, ushbu maqola xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan hukumatni shakllantirishning noparlamentar usulini konseps-

tual, nazariy, konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Hukumat kollegial organ sifatida tashkil etilar ekan, uni shakllantirish jarayoni ham o'ta muhim bosqich hisoblanadi. Bunda hukumatni shakllantirish muayyan davlatning boshqaruv shakliga bevosita bog'liqdir.

Konstitutsiyaviy-huquqiy nazariyaga ko'ra, hukumatni shakllantirishning, asosan, ikki: parlamentar va noparlamentar usullari amal qiladi.

Hukumatni parlamentar usulda shakllantirish jarayonida asosiy rolni saylangan oliy vakillik organi o'ynasa, noparlamentar usulda bu boshqacha tarzda amalga oshiriladi.

Hukumatni shakllantirishdagi noparlamentar usul prezidentlik respublikalarida, hozirda juda kam saqlanib qolgan ayrim monarxiya, shu jumladan, konstitutsiyaviy yoki parlament niqobi ostidagi monarxiyalarda (aslida, bu yerda konstitutsiya yoki parlamentning roli past) amal qiladi.

Monarx davlat va hukumat boshlig'i sifatida faoliyat yuritir ekan, aslida, uning olib borayotgan faoliyatiga hech bir mansabdor shaxs yoki organ biron-bir tarzda ta'sir o'tkazmaydi.

Bunday boshqaruv shakli to'g'risida fikr bildirar ekan, V.Chirkin mutlaq monarxiya boshqaruvi shaklidagi davlatlarda parlament yoki boshqacha shakldagi maslahat organi-ning yo'qligi sabab hukumat monarx tomonidan tashkil etiladi. Monarx juda kam holatlarda Bosh vazir va asosiy vazirlar vakolatlarini o'z zimmasiga oladi. Ko'p holatlarda Bosh vazir hukmronlik qiluvchi sulolaning katta o'g'li, akasi, jiyanlari orasidan tayinlanadi [3], deb hisoblaydi.

Jumladan, Bruney sultonligida hukumatning shakllanishi bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu davlatning konstitut-

siyasida oliy ijro etuvchi hokimiyat Sultonga tegishliligi belgilanib, Sultonning o'zi Bosh vazir bo'lib, u o'z fuqarolari orasidan xohlagan gancha vazir va uning o'rinbosarlarini tayinlashi mumkin va ular o'z faoliyatlari uchun sultonning oldidagina javobgar hisoblanadi hamda ularning vakolat muddati 5 yilni tashkil etadi (Bruney Konstitutsiyasi 3-qism 4-modda) [1, 334-b.].

Saudiya Arabistonining Asosiy Nizomi 56- va 57-moddalariga ko'ra, ijro etuvchi hokimiyat Vazirlar Kengashi deb nomlanib, unga Qirol boshchilik qiladi va Vazirlar Kengashi raisi o'rinbosarlari va vazirlar qirol tomonidan tayinlansa [1, 186-b.], Qatar Konstitutsiyasining 117- va 118-moddalariga ko'ra, vazirlarni Bosh vazirning taqdimiga binoan, Amir o'z buyrug'i bilan tayinlaydi [1, 92-b.]. Arab davlatlarining mutlaq va dualistik boshqaruv shakliga ega bo'lgan monarxiya davlatlarida hukumat davlat boshlig'i huzuridagi maslahat va ijro etuvchi tuzilma sifatidagina faoliyat olib boradi [4].

Bunday boshqaruv shaklidagi davlatlarda alohida va mustaqil ijro etuvchi hokimiyat to'g'risida tasavvur qilish ham qiyin. Chunki davlat hokimiyati to'laligicha qirol yoki sultonga tegishli bo'lib, ijro funksiyalari ham uning vakolatlari bilan aralashgan bo'ladi, bu yo'nalishdagi faoliyatni to'g'ridan to'g'ri o'zi xohlaganicha yoki xohlagan shaxsga berish orqali amalga oshiradi. Qirolning ushbu faoliyatini cheklovchi na biror organ va na biror qonun mavjud. Ushbu holat Fransiya qiroli Lyudovig XIVning o'sha mashhur "Davlat – bu men" [5] degan iborasining yorqin amaliy ifodasidir.

Tadqiqot natijalari va uning tahlili

Hukumatni shakllantirishning noparlamentar usuliga xos bo'lgan prezidentlik respublikalarida ham davlat boshlig'i ijro etuvchi hokimiyatning egasi hisoblanadi. Braziliya Konstitutsiyasining 84-moddasi [1, 563-b.], Kolumbiya Konstitutsiyasining 120-moddasi [1, 48-b.], Meksika Konstitutsiyasining 89-moddalariga ko'ra [1, 51-b.], prezident o'z

xohishiga ko'ra, hukumatni shakllantiradi va uning mansabdorlarini lavozimdan ozod etadi. Umuman olganda, prezident hukumatni shakllantirish jarayonida parlamentga nisbatan ham juda keng vakolatlarga ega. Masalan, Rossiya Federatsiyasida [6] davlat boshlig'i taqdim etgan hukumat rahbari nomzodini parlament uch marta tasdiqlashdan bosh tortsa, u parlamentning quyi palatasini (Davlat Dumasi) tarqatib yuborishi ham mumkin.

Shuningdek, bir qator prezidentlik respublikalarida, jumladan, Qozog'istonda [7] hukumat tarkibiga kiruvchi muayyan tarmoq boshqaruv organlari, xususan, tashqi ishlar, ichki ishlar va mudofaa vazirlari prezident tomonidan mustaqil tarzda tayinlansa, Ukrainada [8] Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazirning Oliy Radaga kiritgan taqdimiga asosan tayinlanishi barobarida, mudofaa vaziri va tashqi ishlar vazirlari aynan prezidentning mamlakat parlamenti Oliy Radaga kiritgan taqdimiga ko'ra tayinlanadi. Yoki [9], Rossiya Federatsiyasining "Hukumat to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni 32-moddasiga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, federal konstitutsiyaviy qonunlar, federal qonunlarga muvofiq, mudofaa, xavfsizlik, ichki ishlar, adliya, tashqi ishlar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va tabiiy ofatlarining oqibatlarini bartaraf etish hamda milliy gvardiya qo'shinlari faoliyati bo'yicha federal ijroiya organlari faoliyatini boshqaradi. Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining taklifiga binoan, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi hamda ushbu organlarning rahbarlari va o'rinbosarlarini tayinlaydi [10].

Mazkur holat hukumat faoliyatidagi shu sohalarining doimo davlat rahbari nazorati ostida va bevosita uning rahbarligida harakatlanishini taqozo etishi bilan izohlanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida esa hukumat a'zolari "Senatning maslahati va roziligi" bilan prezident tomonidan tayinlansa-da, amaliyotda Senatning ushbu jarayondagi qarshi reaksiyasi nihoyatda kam uchraydi [11].

Hukumatni shakllantirishdagi parlamentar va noparlamentar usullarning bir-biridan asosiy farqli jihati, parlamentning yangi shakllanayotgan hukumatga nisbatan qonunchilikda belgilangan tarzda ifoda etiladigan “ishonchi” parlamentar usulda hukumatning legitimli bo'lishi va faoliyatini boshlash uchun asos bo'ladi. Noparlamentar usulda esa hukumat bevosita prezident yoki boshqa nom bilan ataluvchi davlat rahbarining ixtiyoriga asosan shakllangani sababli, garchi ushbu usulda ham hukumat boshlig'i yoki uning a'zolarini tasdiqlash yuzasidan parlament palatalariga ularning roziligi uchun nomzodlar “rasman” taqdim etilsa-da, ham huquqiy, ham amaliy jihatdan hukumat uchun parlamentning ishonchi hal qiluvchi ahamiyatga ega emas.

G'arbiy Yevropa davlatlarida hukumat parlamentdagi partiyalar mutanosibligi nuqtayi nazaridan tashkil qilingan bo'lsa ham, uning a'zolari o'z partiyalari ko'rsatmalariga muayyan darajada bo'ysungani holda, ular siyosiy partiya manfaatlariga emas, balki umumdavlat manfaatlariga xizmat qilishi lozim. Amaliyotda hukumat faoliyatiga parlament fraksiyalarining sezilarli ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Bunda hukumatga partiyaning markaziy organi emas, aynan uning parlamentdagi fraksiyasi o'z ta'sirini o'tkazadi. Totalitar sotsialistik mamlakatlarda esa hukumat hokimiyat tepasida turgan partiya markaziy qo'mitasi-ning ko'rsatmalariga muvofiq faoliyat yuritadi [12].

Turli davlatlarda hukumat ijtimoiy hayot sohasiga doir turli vakolatlarni amalga oshirsa-da, barcha rivojlangan demokratik davlatlarda hukumat o'z faoliyatining asosi sifatida fuqarolarning haq-huquqlari, manfaatlari va erkinliklari himoyalaniishini ta'minlashni ifoda etadi. Ana shu fuqarolar tomonidan saylangan xalq vakillari qabul qilgan qonunlar ijrosi bevosita hukumatning faoliyati va u qabul qiladigan huquqiy hujjatlar asosida ta'minlanadi.

Xorijiy mamlakatlarda aksariyat hollarda hukumatni qaysi organ shakllantirgan bo'lsa, uni siyosiy javobgarlikka tortish vakolati ham aynan unda bo'ladi. Hukumatning konstitutsiyaviy-huquqiy javobgarligi, ya'ni uning iste'fosi borasida fikr yuritadigan bo'lsak, xalq manfaatlarini ifodalaydigan hukumat biror-bir tarzda ushbu xalqning haq-huquqlariga zid keladigan faoliyatni amalga oshirsa, uning vakillari ushbu hukumatga ishonchsizlik bildirib, uning faoliyati to'xtatilishini talab qilishi mumkin. Misol uchun, Fransiya Konstitutsiyasining 50-moddasiga binoan, agar Milliy Yig'ilish hukumatning dasturi yoki Umumsiyosiy xususiyatdagi bayonotini tasdiqlamasa va hukumatga “tanbeh rezolyutsiyasi”ni bildirsa, Bosh vazir Respublika Prezidentiga hukumatni iste'foga chiqarishni so'rab, ariza bilan murojaat qilishi shart [13].

Ispaniya Konstitutsiyasining 114-moddasiga binoan, agar Kongress ishonchsizlik to'g'risida qaror qabul qilsa, hukumat Qirolga iste'fo to'g'risidagi bayonotni kiritadi [14]. Portugaliya Konstitutsiyasining 195-moddasiga ko'ra, hukumat, ya'ni yangi legisturaning boshlanishi; prezidentning Bosh vazir tomonidan bildirilgan iste'fosining qabul qilinishi; Bosh vazirning vafot etishi yoki uzoq muddatli o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan jismoniy qobiliyatsizlik, hukumat dasturining rad etilishi; ishonchsizlik votumi bildirilishi; vakolatli deputatlar ko'pchilik qismi tomonidan “tanbeh qarori”ning tasdiqlanishi kabi holatlarda iste'foga chiqadi [1, 141-b.].

Hukumatni parlament usuli orqali shakllantiradigan davlatlar uchun xos bo'lgan xususiyat sifatida hukumat a'zolarini iste'foga chiqarish mutlaqo vakillik organining vakolatida ekanligi bilan izohlanadi. Demak, parlament ayni paytda qonunchilik hokimiyatini ifoda etishi bilan bir paytning o'zida ijro etuvchi hokimiyat ishini ham to'liq nazorat qila oladi va xohlagan vaqtda uni tarqatib yuborish uchun o'zida yetarlicha qonuniy vositalarni saqlab qolgan. Shu sababli ham ba'zi

mutaxassislar ijro etuvchi hokimiyat bu parlamentning davomi ekanligi to'g'risida fikr bildiradilar. Ya'ni vakillik organi faqat o'zi bilan cheklanib qolmay, hukumatni shakllantirish va uni iste'foga chiqarish to'liq uning nazoratida ekanini ta'kidlaydilar.

Noparlamentar usuldagi va davlat rahbari tomonidan to'g'ridan to'g'ri shakllantiriladigan hukumatlarda hukumat hamda uning alohida a'zolari bevosita ushbu shaxsning xohish-irodasiga binoan iste'foga chiqariladi. Bundan ijro etuvchi hokimiyat to'liq ushbu davlat rahbarining vakolati va nazorati ostida ekanligini xulosa qilish mumkin. Davlatning boshqaruv shakli qanday ekanligi to'g'risida bilmoqchi bo'lsak, albatta, unda ijro etuvchi hokimiyat organi kim tomonidan shakllantirilishi va uni kim javobgarlikka tortish orqali iste'foga chiqarishiga oid me'yorlarni tahlil qilib, xulosa chiqarishimiz mumkin.

Ijro etuvchi hokimiyat va hukumat to'g'risida gapirganda, ushbu ikki tushuncha bir-biridan farq qilishi to'g'risida fikr yuritgan edik. "Ijro hokimiyati" "hukumat"ga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, dunyo konstitutsiyalarida ijro hokimiyatining kim yoki qaysi organga tegishliligi ba'zan konstitutsiyalarda mustahkamlanadi. Xususan, "Ukraina, Belarusda va ularning konstitutsiyalarida belgilanganidek, ijro hokimiyatini hukumat amalga oshirsa, Amerika Qo'shma Shtatlari, Braziliya, Meksika konstitutsiyalariga muvofiq, hukumat kollegial organ sifatida mavjud bo'lmaydi. Ijro hokimiyati bevosita prezident ixtiyoridadir" [15]. Ularda vazirlarni birlashtiruvchi kabinet qarorlar qabul qilmaydi, balki qarorlarni muhokama qiladi. Faqatgina prezident umumiy vakolatlari doirasida markaziy ijro hokimiyati nomidan qarorlar qabul qiladi. Shu sababli ushbu sharoitda prezident to'g'risida gap ketganda, uni hukumat boshlig'i emas, balki davlat va ijro hokimiyatining boshlig'i ekanligini ta'kidlash joiz [16]. Ana shularga ko'ra, bu davlatlarda ijro hokimiyati rahbari sifatida bevosita prezident ijro etilishi lozim bo'lgan huquqiy

aktlar qabul qiladi hamda ijro hokimiyatini bevosita o'zi ifoda etadi.

Xulosalar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 89-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta'minlaydi. Shuningdek, Konstitutsiyaning prezident vakolatlari sanab o'tilgan 93-moddasi 1-qismi 8-bandida respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlaydi, degan qoidaning mavjudligi ham davlat rahbarining asosiy faoliyatidan biri sifatida barcha hokimiyat tarmoqlarining o'zaro kelishuv (qonun doirasida) asosida normal harakatlantirishlarini ta'minlashdan iboratligini anglatadi. Bu yerda prezidentning aynan davlat boshlig'i sifatida e'tirof etilishi va huquqiy jihatdan belgilanishi uning davlat hokimiyati organlari tizimida eng yuqori va oliy maqomga ega ekanini ifoda etadi.

Rus tadqiqotchisi A. Shipanov "Prezident vakolatlari davlat hokimiyatining boshqa organlariga nisbatan o'zining istisno xususiyati (ustunlik)ga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Prezident ularning ustidan yuqorilab boradi va davlat rahbariga aylanadi" [17], deb hisoblaydi. Prezident vakolatni umumxalq saylovlari natijasiga ko'ra bevosita xalqdan olganligi sababli ham uning oliy maqomda bo'lishi tabiiy holdir.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda hukumat siyosiy organ sifatida namoyon bo'lsa-da, uning asosiy faoliyati davlatda ijtimoiy hayot sohalarining barcha tarmoqlarini tegishli tartibda boshqarish, quyi turuvchi tuzilmalar faoliyatini tezkorlik bilan tartibga solish hamda konstitutsiya va qonunlarda belgilangan vazifalarni ijro etish xususiyatiga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Zero, Afanaseva qayd etganidek, hukumat – universal vakolatlarga ega bo'lgan davlatda ijro etuvchi va tartibga soluvchi hokimiyatni amalga oshiradigan kollegial organdir [18].

Xorijiy mamlakatlarda hukumat faoliyatiga oid konstitutsiyaviy-huquqiy normalar va amaliyotning tahlili xorijiy mamlakatlarda qonunlar va davlat siyosatini ijro etish vazifasining hukumatga tegishli ekanligi va uning faoliyati universalligi; xorijiy mamlakatlarda hukumatni shakllantirishning ikki, ya'ni parlamentar va noparlamentar usullari amal qilishi; hukumatning shakllantirish tartibi va ijro etuvchi hokimiyatning tegishliligi, avvalo, muayyan davlatning boshqaruv shakliga bog'liq bo'lishi; hukumat faoliyatiga oid muhim qoidalarining bevosita konstitutsiyada belgilanishi; monarxiya va prezident-

lik boshqaruvi shaklidagi davlatlarda ijro hokimiyatining bevosita qirol yoki prezident tomonidan amalga oshirilishi; turli mamlakatlarda hukumat rahbari turlicha nomlansa-da, uning asosiy vazifasi hukumat a'zolariga rahbarlik qilish va ijro funksiyalarini bajarishda bosh mas'ul ekanligi; hukumatning parlament va davlat rahbari oldidagi hisobdorligi; parlamentar davlatlarda hukumat va uning a'zolari iste'fosi yuzasidan konstitutsiyaviy tartib va tamoyillarning **belgilanishi hamda amal qilishi yuzasidan xulosalarga kelishimizga asos bo'ladi.**

REFERENCES

1. Konstitutsii gosudarstv (stran) mira [Constitutions of states (countries) of the world]. Available at: <https://worldconstitutions.ru/>.
2. Konstitutsii gosudarstv Evropeiskogo Soiuza [Constitutions of the states of the European Union]. Under the general editorship and with an introductory article by L.A. Okunkova. Moscow, Norma-Infra, 1999, p. 392.
3. Chirkin V.E. Gosudarstvovedenie [State studies]. Moscow, Iurist Publ., 1999, 329 p.
4. Sapronova M.A. Politicheskii protsess v arabskikh stranakh [The political process in the Arab countries]. Moscow, MGIMO University, 2017, 312 p. Available at: http://www.lib.csu.ru/ER/ER_SPSAS/fulltexts/SapronovaMA_37-66.pdf/.
5. L'état c'est moi [I am the state]. From Wikipedia, the free encyclopedia. Available at: https://ru.wikipedia.org/wiki/L%E2%80%99est_c%27est_moi/.
6. Konstitutsiia Rossiiskoi Federatsii [Constitution of the Russian Federation]. Available at: <http://www.constitution.ru/10003000/10003000-8.htm/>.
7. Konstitutsiia Respubliki Kazakhstan. Ofitsial'nyi sait Prezidenta Respubliki Kazakhstan [Constitution of the Republic of Kazakhstan. Official website of the President of the Republic of Kazakhstan]. Available at: https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution/.
8. Konstitutsii Ukrainy [Constitution of Ukraine]. Available at: <https://meget.kiev.ua/zakon/konstitutsiia-ukraini/razdel-6/>.
9. Konstitutsiia Respubliki Kazakhstan (priniata na respublikanskom referendume 30 avgusta 1995 goda) (s izmeneniyami i dopolneniyami po sostoianiiu na 23.03.2019 g.) [Constitution of the Republic of Kazakhstan (adopted at the republican referendum on August 30, 1995) (as amended and supplemented as of March 23, 2019)]. Available at: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=1005029#pos=404;-39/.
10. O Pravitel'stve Rossijskoj Federacii. Federal'nyj Konstitucionnyj Zakon Rossijskoj Federacii (s izmeneniyami na 28 dekabrja 2016 goda) [On the Government of the Russian Federation. Federal Constitutional Law of Russian Federation (as amended on December 28, 2016)]. Available at: <http://docs.cntd.ru/document/9054748/>.
11. Konstitutsionnoe pravo zarubezhnykh stran [Constitutional law of foreign countries]. Ed. M.V. Baglaia, Iu.I. Leibo, L.M. Entin. 3rd ed., revised. Moscow, Norma, Infra-M, 2010, p. 334.

12. Konstitucija Kitajskoj Narodnoj Respubliki [Constitution of the People's Republic of China]. Available at: <https://legalns.com/download/books/cons/china.pdf/>.

13. Konstitutsii mira: Sbornik konstitutsii gosudarstv mira [Constitutions of the world: Collection of constitutions of the states of the world]. Comp. and the authors of the introductory article U. Tajikhanov, A.Kh. Saidov. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 1998, vol. 5, p. 287.

14. Ispanskaja Konstitucija. Odobrena General'nyimi kortesami na plenarnyh zasedaniyah Kongressa deputatov i Senata 31 oktjabrja 1978 goda, utverzhdena ispanskim narodom na referendum 6 dekabrja 1978 goda, podpisana e.v. Korolem pered General'nyimi kortesami 27 dekabrja 1978 goda [Spanish Constitution. Approved by the Cortes Generales at the plenary sessions of the Congress of Deputies and the Senate on October 31, 1978, approved by the Spanish people in a referendum on December 6, 1978, signed by E.V. by the King before the Cortes Generales on December 27, 1978]. *Boletin Oficial del Estado*, 1978, December 29, no. 311. Available at: <http://vivovoco.astronet.ru/vv/law/spain.htm/>.

15. Engibarian R.V., Tadevosian E.V. Konstitutsionnoe pravo [Constitutional law]. Moscow, Iurist Publ., 2000, p. 435.

16. Siz'ko I.A., Chepurnova N.M. Konstitutsionnoe pravo zarubezhnykh stran [Constitutional law of foreign countries]. Moscow, MESI, 2007, p. 127, 184 p.

17. Shchipanov A.V. Polnomochiia Prezidenta Rossiiskoi Federatsii: varianty klassifikatsii [Powers of the President of the Russian Federation: classification options]. *Actual problems of the humanities and natural sciences*, 2009, no. 10, p. 285.

18. Afanas'eva O.V., Kolesnikov E.V., Komkova G.N., Mal'ko A.V. Konstitutsionnoe pravo zarubezhnykh stran [Constitutional law of foreign countries]. Ed. A.V. Malko. Moscow, Norma, 2004, p. 187.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

1 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurabayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Salayev Nodirbek Saparbayevich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Jurnal 15.03.2022-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 21,36 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 7.

TDYU tipografiyasida chop etildi.